



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

TERMINOLOGIK BAZANING YAGONA ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH ISTIQBOLLARI: TEXNIK TERMINOLOGIYANI STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Xurshida XASHIMOVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek texnik terminologiyasini tartibga solish, uning yagona standart asosida shakllantirilishi va elektron platformada umumxalq foydalanishi uchun qulay terminologik baza yaratish masalalari keng yoritilgan. Muallif xalqaro tajribalarni — TermWiki, Termbase, IATE, UNTERM kabi yirik elektron manbalarni tahlil qilib, ularning tuzilishi, ishlash mexanizmlari hamda foydalanuvchilarga taqdim etayotgan imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu asosda o'zbek tilidagi mavjud lug'atlarning imkoniyatlari va kamchiliklari taqqoslab beriladi. Tadqiqotda texnik terminlarning variantlilik, yangilanishning sustligi, yagona normativ baza va elektron platformaning yo'qligi asosiy muammo sifatida qayd etiladi. Muallif milliy terminologik korpus va elektron baza yaratish zaruriyatini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab, bu yo'nalishning rivoji o'zbek tilining zamonaviy ilmiy-texnik sohalarda qo'llanishini kengaytirishi, terminologiyani xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim qadam bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'zbek terminologiyasi, texnik terminlar, xalqaro tajriba, elektron platforma, terminologik baza, standartlashtirish, variantlilik, normativ hujjatlar, termin korpusi, zamonaviy ilmiy-texnik soha, IATE, TermWiki.

Prospects For Creating a Unified Electronic Platform of Terminological Database: Scientific and Practical Foundations of Standardizing Technical Terminology

Abstract

This article discusses the issues of regulating Uzbek technical terminology, its formation on the basis of unified standards, and the creation of an electronic terminology database for public use. The author analyzes international practices such as TermWiki, Termbase, IATE, and UNTERM, highlighting their structure, operational mechanisms, and advantages for users. Based on this, the opportunities and shortcomings of existing Uzbek dictionaries are compared. The study identifies problems such as terminological variation, slow updating processes, and the lack of a unified normative base and electronic platform. The necessity of creating a national terminological corpus and an electronic database is scientifically and practically substantiated. The author concludes that such development will expand the use of the

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. University of Business and Science, xashimovaxurshida1@gmail.com

Uzbek language in modern scientific and technical fields and ensure its compliance with international standards.

Keywords: Uzbek terminology, technical terms, international practice, electronic platform, terminology database, standardization, variation, normative documents, terminology corpus, modern scientific and technical field, IATE, TermWiki.

Kirish

Texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar va atamalar har kuni yuzaga kelmoqda. “Texnik terminologiyani tartibga solish jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki ishlab chiqarish va ta’lim sohalarini uchun ham bevosita ahamiyatlidir” (Doniyorov, 2019, 45-bet). Bu jarayon O‘zbekistonda ham alohida sezilmoqda, chunki mustaqillikdan keyin ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamlashtirish, energetika, muhandislik va IT sohasi uchun yuzlab yangi terminlar muomalaga kiritildi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud terminlar bir xil me’yor asosida qo‘llanilmaydi. Masalan, bir sohada inglizcha “software” atamasi to‘g‘ridan to‘g‘ri “sofdver” shaklida ishlatilsa, boshqa sohada “dasturiy ta’minot” deb beriladi.

Bu kabi variantlilik ta’lim, tarjima, hujjat yuritish va ilmiy tadqiqotlarda chalkashlik tug‘diradi. Shu bois texnik terminlarni yagona elektron platformada jamlash, ularni standartlashtirish, normativ tasdiqlash va keng jamoatchilikka ochiq ma’lumot sifatida taqdim etish dolzarb vazifaga aylandi.

Adabiyotlar sharhi

Terminologiya va leksikografiya sohalarida xalqaro tajribalar boydir. Yevropa Ittifoqida barcha terminologik ma’lumotlar yagona elektron bazada jamlanib, muntazam ravishda yangilanadi” (TermCoord, 2020, 112-bet).

1. **Termbase** (terminologik baza) konsepsiyasi G‘arbda 1980-yillardan boshlab joriy etilgan va terminlarni boshqarishda asosiy vosita hisoblanadi (Sager, 1990). Har bir termin konsept asosida tasniflanib, definitsiya, til ekvivalentlari, manbaa va qo‘llanish doirasi bilan boyitiladi.

2. **TermWiki** platformasi global miqyosda terminologiyani boshqarish imkonini beruvchi interaktiv tizim bo‘lib, foydalanuvchilarga termin qo‘shish, baholash va ekvivalent topish imkonini yaratadi.

3. **TBX (TermBase eXchange)** — ISO 30042 standarti asosida ishlab chiqilgan va terminologik ma’lumot almashishning xalqaro formati sifatida keng qo‘llanadi.

4. O‘zbekistonda esa terminologiya bo‘yicha izlanishlar X.Doniyorov, B.Mengliyev, D.Qurbonova, Sh.Yusupova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, Doniyorov (2015) texnik terminlarni milliy me’yor asosida shakllantirishda fonetik moslashuv va semantik aniqlik tamoyillarini belgilagan.

“Termin yaratish va standartlashtirish jarayoni izchil ilmiy nazariya va amaliy tajriba talab qiladi, aks holda bir xil terminning turlicha qo‘llanishi yuzaga keladi” (Mengliyev, 2022, 67-bet).

Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006) va “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (2020) terminologiyani tartibga solishda muhim bosqich hisoblanadi, ammo ular texnik sohalarda to‘liq qamrov bermaydi.

Metodologiya

“Terminologik bazani shakllantirishda elektron texnologiyalarni joriy etish jarayonni tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi” (Doniyorov, 2019, 103-bet).

1. Taqqoslama tahlil: xalqaro terminologik platformalar va o‘zbekcha terminologik manbalar solishtirildi. Xalqaro terminologik platformalar va o‘zbekcha terminologik manbalar o‘rtasidagi asosiy tafovutlar quyidagicha:

“Xalqaro terminologik bazalar ko‘p tilli interfeys va keng qamrovli sohalarni o‘z ichiga oladi” (EuroTermBank, 2018: 59-bet). “O‘zbek tilidagi lug‘atlar esa ko‘proq bosma shaklda bo‘lib, yangilanish tezligi sustdir” (Mengliyev, 2022: 71-bet).

2. Nazariy asoslash: terminologiya nazariyasi (Sager, Cabré, Lotte) tamoyillari asosida elektron platformaning ilmiy zaruriyati asoslab berildi.

3. Amaliy modellashtirish: yagona terminologik bazaning konseptual modeli ishlab chiqildi.

4. Ekspert yondashuvi: tilshunoslar, mutaxassislar va texnik soha vakillari qarashlari o‘rganildi.

Yuqoridagilardan taqqoslama tahlilni ko‘rib chiqamiz.

Taqqoslama tahlil

Mezon	Xalqaro terminologik platformalar	O‘zbekcha terminologik manbalar
Asosiy manbalar	IATE (EU), TermTerm (UNESCO), EuroTermBank, TermCoord, ISO Terminology	“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “O‘zbekcha-ruscha texnik lug‘atlar”, ayrim sohaviy lug‘atlar
Maqsad va vazifa	Yagona termin bazasini yaratish, turli tillarda ishlatish uchun standartlashtirish, xalqaro hujjatlarda yagona termin ishlatilishini ta’minlash	O‘zbek tilida texnik va ilmiy sohalarda foydalaniladigan terminlarni tartibga solish, milliy til siyosati asosida normallashtirish
Qamrov	Siyosat, huquq, texnika, tibbiyot, ekologiya, iqtisodiyot	Asosan tilshunoslik, texnika, kimyo, huquq va ayrim

Mezon	Xalqaro terminologik platformalar	O‘zbekcha terminologik manbalar
	va boshqa barcha sohalar	sohaga oid lug‘atlar bilan chegaralangan
Platforma shakli	Onlayn ochiq ma’lumot bazalari, qidiruv tizimlari, muntazam yangilanish	Asosan bosma lug‘atlar, ayrim elektron lug‘atlar (masalan, imlo.lugati.uz)
Yangilanish tezligi	Doimiy ravishda yangi terminlar kiritiladi, mavjudlari yangilanadi	Sekin, ko‘pincha yangi nashr chiqishi bilanoq (5–10 yilda bir marotaba)
Standartlashtirish mexanizmi	ISO, EU qoidalari asosida, ekspertlar kengashi tomonidan tekshiriladi	O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Til qo‘mitasi, ayrim sohaviy ilmiy kengashlar tomonidan
Foydalanuvchilar uchun qulaylik	Onlayn qidiruv, ko‘p tilli interfeys, terminning izohi, kontekstdagi qo‘llanishi	Ko‘proq izohli shaklda, lekin onlayn imkoniyatlar cheklangan, ko‘p hollarda qidiruv tizimi qulay emas
Ilmiy-amaliy samaradorlik	Xalqaro hamkorlikda yagona til va tushuncha yaratishga xizmat qiladi, ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi	Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda va davlat hujjatlarida muhim rol o‘ynaydi, ammo global integratsiyada cheklangan
Muammolar	Ba’zan turli tillarda ekvivalent mos kelmasligi, milliy terminologiya bilan to‘qnash kelishi	Yagona elektron bazaning yo‘qligi, yangilanish sustligi, bir xil terminlarning turlicha qo‘llanilishi

Amaliy tajriba va xalqaro misollar

1. **TermWiki** — foydalanuvchilar ishtirokida yaratilgan global platforma. Unda 500 mingdan ortiq termin jamlangan.

2. **IATE (Interactive Terminology for Europe)** — Yevropa Ittifoqining rasmiy terminologik bazasi bo‘lib, barcha rasmiy tillarda ishlaydi.

3. **UNTERM** — BMT terminologik bazasi, xalqaro hujjatlarda termin birligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

4. **Karakalpak matematika terminlari platformasi** – mintaqaviy darajada milliy ehtiyoj asosida yaratilgan loyiha bo‘lib, terminologiyaning elektron boshqaruvi samaradorligini ko‘rsatib berdi (Arziev, 2023).

Bu misollar O'zbekistonda ham texnik terminlarni elektron shaklda jamlashning nafaqat mumkin, balki zarur ekanini isbotlaydi.

Yagona terminologik platformaning modeli quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topishi lozim:

1. **Ma'lumotlar bazasi (TermBase):** termin identifikatori (ID),definitsiya, domen (soha), ekvivalentlar (o'zbek, rus, ingliz va h.k.), misollar va kontekstlar, normativ manbaalardan iborat.

2. **Texnologik infratuzilma:** web va mobil ilova, qidiruv va filtr imkoniyatlari, API orqali integratsiya.

3. **Normativ asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Til siyosati konsepsiyasi (2019), Terminologiya qo'mitasi faoliyati

4. **Foydalanuvchi interfeysi:** mutaxassislar uchun ekspert rejimi, talabalar va keng jamoatchilik uchun oddiy qidiruv, interaktiv sharh va takliflardan iborat.

Terminologik platformaning asosiy komponentlari va talablari:

1. **Ma'lumot bazasi (termbase):** Har termin uchun konsept identifikatori (unique ID) bo'lishi, Domeni, matn manbasi, ta'rif, grammatik ma'lumot, ekvivalentlar (ru, en, va boshqa tillarda), Foydalanish holatlari (context) va misollardan iborat bo'ladi.

2. **Standartlashtirish mezonlari:** **Aniqlik:** termin bir ma'noni ifodalaydigan bo'lishi, **Qisqalik:** ortiqcha murakkab so'zlardan foydalanmaslik, **Milliylik:** o'zbek tilining fonetik va morfologik normalariga moslik, **Xalqaro moslik:** agar zarur bo'lsa, xalqaro atamalar bilan integratsiyasi ko'rsatiladi.

3. **Texnologik infratuzilma:** Web-platforma: veb-interfeys, mobil qo'llab-quvvatlash, Qidiruv va filtr funksiyalari (domen, til, status, yaratilgan sana), Qo'llash foydalanuvchilarga – mutaxassislar, talaba-o'quvchilar, tarjimonlar.

4. Normativ va huquqiy asoslar:

1. Davlat til siyosati, til qonunchiligi
2. Standartlashtirish idoralari yoki terminologiya komissiyalari ishtiroki
3. Me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va tatbiqi

5. Foydalanuvchi va hamkorlik jihatlari

1. Mutaxassislar va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash
 2. Interaktivlik: foydalanuvchidan feedback, taklif va sharhlar qabul qilish
- Doimiy yangilanish va monitoring

Muammolar va cheklovlar

1. Termin variantlilik va ruscha-inqilobiy merosdan qolgan chalkashliklar.
2. Terminlarni tez yangilash va amaliyotga tatbiq qilishdagi sustlik.
3. Yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimining yo'qligi.
4. Texnik resurslar va malakali kadrlar yetishmasligi.

Takliflar va istiqbollar

1. Pilot loyiha sifatida informatika va energetika sohalarida elektron terminologik baza yaratish.

2. Davlat qo‘llab-quvvatlovi asosida terminlarni normativ hujjatlar bilan tasdiqlash.

3. Xalqaro standartlar bilan integratsiya (TBX formatidan foydalanish).

4. Universitet va ilmiy muassasalar ishtirokida platformani muntazam boyitish.

5. Foydalanuvchilarga ochiq dasturiy interfeys (API) orqali dasturiy ta’minot va tarjima vositalariga ulashdan iborat. “Terminologiya milliy tilning rivoji va xalqaro hamkorlikdagi samaradorligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biridir” (Doniyorov, 2019: 149-bet).

Xulosa

Terminologik bazaning yagona elektron platformasini yaratish texnik terminologiyani tartibga solishda eng samarali yo‘ldir. Bu jarayon nafaqat til siyosatini mustahkamlaydi, balki ilmiy izlanishlar, texnik hujjatlar, ta’lim va ishlab chiqarishdagi terminologik bir xillikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Misollar va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday platforma foyda keltiradi, ammo muvaffaqiyat uchun standartlashtirish mezonlari, normativ tayanch, texnologik infratuzilma va foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

Arziyev A. (2023). *Current Trends in The Formation of Mathematical Terminology on an Online Platform*. ResearchGate.

Doniyorov X. (2015). *Texnik terminlarni standartlashtirish tamoyillari*. Toshkent.

Doniyorov R. (2019). *O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari*. Toshkent: Fan.

Лотте Д.С. (1961). *Основы построения научно-технической терминологии*. Москва: АН СССР.

Mengliyev B., Xamroyeva, Sh., Ahmedova, D. (2022). *Kompyuter leksikografiyasi*. Toshkent: TSUULL.

TermCoord. (2020). *Terminology Coordination Unit Publications*. Luxembourg: European Parliament.